



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **15,8** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,4** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024 - yilning yanvar-sentabrida **3568** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **64** taga kup demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

7,6 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
1200

20,6 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
3255




Qurilish
1265

8,0 %

Sanoat 15,3 %
2422

2020-2024- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.

2024- y.

| | | |
|-------|--------------------|-------|
| 17329 | Jizzax viloyati | 15826 |
| 4500 | Jizzax sh | 4137 |
| 621 | Arnasoy | 652 |
| 1221 | Baxmal | 1153 |
| 1622 | G'allaorol | 1507 |
| 2332 | Sharof Rashidov t. | 2169 |
| 744 | Do'stlik | 595 |
| 1495 | Zomin | 1416 |
| 908 | Zarbdor | 838 |
| 515 | Zafarobod | 538 |
| 663 | Mirzacho'l | 450 |
| 909 | Paxtakor | 794 |
| 1366 | Forish. | 1178 |
| 433 | Yangiobod | 399 |

16 953

2020- y.

20 270

2021- y.

21 918

2022- y.

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **15 826** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3568** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **4137** tani yoki jamiga nisbatan **26,1 %** ni tashkil etdi.


1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

17 329

2023- y.

15 826

2024- y.





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

| | |
|-----------------|------|
| Jizzax shahar | 21,1 |
| Arnasoy | 23,6 |
| Baxmal | 13,2 |
| G'allaorol | 13,8 |
| Sharof Rashidov | 12,6 |
| Do'stlik | 14,3 |
| Zomin | 13,2 |
| Zarbdor | 16,8 |
| Mirzacho'l | 17,4 |
| Zafarobod | 16,4 |
| Paxtakor | 13,7 |
| Forish | 15,4 |
| Yangiobod | 18,6 |

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1 oktabr holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **15,4** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,5** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Arnasoy tumanida **23,6** birlik, Jizzax shahrida **21,1** birlik, Yangiobod tumanida **18,6** birlik , Mirzacho'l tumanida **17,4** birlik, Zarbdor tumanida **16,8** birlik , Zafarobod tumanida **16,4** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda


Eng yuqori ko'rsatkich




Kichik tadbirkorlik

subyektlari sonining har 1000
aholiga nisbati tuman va
shahrlar kesimida tahlil
qilinganda eng yuqori
ko'rsatkich Arnasoy tumanida
23,6 birlik Jizzax shahri **21,1**
birlik, Yangiobod tumanida
18,6 birlik Mirzacho'l
tumanida **17,4**, birlik, Zarbdor
tumanida **16,8** birlik, kuzatildi.

O'rta ko'rsatkich



Eng past ko'rsatkich



Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariغا muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yangiobod tumani

18,6

Zarbdor tumani

16,8

Mirzacho'l tumani

17,4

Jizzax shahri

Arnasoy tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2024- y.

2023- y.

| | | |
|-----|-----------------|-----|
| 793 | Jizzax shahri | 692 |
| 250 | Arnasoy | 146 |
| 265 | Baxmal | 270 |
| 408 | G‘allaorol | 425 |
| 382 | Sharof Rashidov | 350 |
| 135 | Do‘stlik | 145 |
| 355 | Zomin | 351 |
| 228 | Zarbdor | 207 |
| 109 | Zafarobod | 135 |
| 106 | Mirzacho‘l | 159 |
| 166 | Paxtakor | 228 |
| 263 | Forish | 301 |
| 108 | Yangiobod | 95 |

2024- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Jizzax shahri – **22,2** %, G‘allaorol – **11,7** %, Sharof Rashidov – **10,7** %, Zomin – 9,9 %, Forish – 7,4 %, Baxmal – 7,4 %, Zarbdor – **6,4** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **1024** ta , savdo sohasida **924** ta,sanoatda **809** ta hamda yangidan tashkil etilgan.

Tumanlar va shahar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Jizzax shahrida **793** ta, G‘allaorol tumanida **408** ta, Sharof Rashidov **382** ta va Zomin tumanida **355** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabri oylari davomida jami **17413** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **5353** (yoki **30,7 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4512** (yoki **25,9 %**) ta, sanoat sohasida –**3513** (yoki **20,2 %**) ta, xizmatlar sohasida – **2919** (yoki **17,8 %**) ta,, va qurilish sohasida – **862** (yoki **5,0 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAXMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabrida YAXM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **74,1** % ni tashkil qildi




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **99,2** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **97,3** % ni, yo‘lovchi tashishda **94,4** % ni, qurlilishda **89,4** %, yuk aylanmasida **97,1** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

| | |
|-----------------|----------------|
| Jizzax shahri | 1 774,1 |
| Arnasoy | 245,5 |
| Baxmal | 104,6 |
| G‘allaorol | 130,0 |
| Sharof Rashidov | 484,4 |
| Do‘slik | 119,6 |
| Zomin | 271,7 |
| Zarbdor | 114,9 |
| Zafarobod | 67,6 |
| Mirzacho‘l | 183,8 |
| Paxtakor | 317,4 |
| Forish | 508,1 |
| Yangiobod | 65,7 |

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5224,1** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (**1774,1** mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (**484,4** mlrd. so‘m), Forish (**508,1** mlrd. so‘m), Arnasoy (**245,5** mlrd. so‘m) Paxtakor (**317,4** mlrd. so‘m), va Zomin (**271,7** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Yangiobod tumani (**65,7** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi % da

2024- yil yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

| | | |
|-----------------|---------|------|
| Yangiobod | 12,0 | 76,5 |
| Forish | 127,7 | 94,7 |
| Paxtakor | 129,5 | 97,1 |
| Mirzachoʻl | 42,5 | 89,4 |
| Zafarobod | 43,0 | 88,4 |
| Zarbdor | 84,8 | 95,1 |
| Zomin | 251,3 | 66,0 |
| Doʻstlik | 79,8 | 92,7 |
| Sharof Rashidov | 505,2 | 97,0 |
| Gʼallaorol | 159,1 | 94,3 |
| Baxmal | 106,3 | 93,1 |
| Arnasoy | 46,5 | 90,3 |
| Jizzax sh. | 1 479,1 | 93,7 |


hajmi, mlrd. soʻmda ↑
ulushi, % da ↑

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4084,0** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,4** % ini tashkil etdi. Oʼsish surʼati yanvar-sentabr oylarida **108,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**1479,1** mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (**505,2** mlrd. soʻm), Zomin (**251,3** mln.soʻm) Gʼallaorol (**159,1** mlrd. soʻm) Paxtakor (**82,7** mlrd. soʻm), Forish (**129,5** mlrd. soʻm) hamda Baxmal (**106,3** mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9107,8** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **52,4 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati **107,8 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish tumani (**1702,3** mlrd. so‘m), Jizzax shahri (**1659,7** mlrd so‘m), Sharof Rashidov (**1054,5** mlrd. so‘m), Zomin (**1618,4** mlrd.so‘m), Zafarobod (**765,1** mlrd. so‘m), Arnasoy (**326,2** mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mln. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **19977,0** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,8%** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati **104,2 %** ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal (**3024,4** mld. so‘m), G‘allaorol (**3062,4** mld. so‘m), Zomin (**1938,3** mld. so‘m), Sharof Rashidov (**1894,2** mld. so‘m), Do‘stlik (**1652,5** mld. so‘m), Paxtakor (**1378,4** mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

| | | |
|-----------------|--------|------|
| Yangiobod | 530,4 | 100 |
| Forish | 1197,8 | 100 |
| Paxtakor | 1378,4 | 99,4 |
| Mirzacho‘l | 971,9 | 98,2 |
| Zafarobod | 960,8 | 99,7 |
| Zarbdor | 1450,0 | 100 |
| Zomin | 1938,3 | 94,4 |
| Do‘stlik | 1652,5 | 99,9 |
| Sharof Rashidov | 1894,2 | 99,5 |
| G‘allaorol | 3062,4 | 99,9 |
| Baxmal | 3024,4 | 100 |
| Arnasoy | 1083,5 | 100 |
| Jizzax sh. | 291,9 | 99,7 |


↑ hajmi, trln. so‘mda ↑ ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6520,8** mlrd. so‘mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **94,3** % ini tashkil etib, o‘sish sur’ati **108,2** % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


| | | |
|-----------------|--------|------|
| Yangiobod | 90,1 | 98,8 |
| Forish | 331,9 | 99,1 |
| Paxtakor | 404,4 | 99,6 |
| Mirzacho‘l | 224,8 | 98,5 |
| Zafarobod | 143,1 | 99,0 |
| Zarbdor | 307,8 | 99,3 |
| Zomin | 634,7 | 83,0 |
| Do‘stlik | 322,4 | 99,4 |
| Sharof Rashidov | 775,1 | 98,4 |
| G‘allaorol | 756,5 | 96,7 |
| Baxmal | 613,8 | 99,0 |
| Arnasoy | 147,6 | 98,8 |
| Jizzax sh. | 1473,8 | 91,4 |

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (**1473,8** mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (**775,1** mlrd. so‘m), G‘allaorol (**756,5** mlrd. so‘m), Zomin (**634,7** mlrd. so‘m), Baxmal (**613,8** mlrd. so‘m), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda




2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9982,3** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **72,8 %** ini va o‘sish sur’ati **113,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (**2108,1** mldr. so‘m), Sharof Rashidov (**907,4** mldr. so‘m), G‘allaorol (**529,2** mldr. so‘m), Zomin (**461,9** mldr. so‘m), Baxmal (**471,7** mldr. so‘m) va Forish (**292,6** mldr. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlarida **56,4 % (3515,9 mlrd. so‘m)** savdo xizmatlarida – **22,7 % (1415,8 mlrd. so‘m)**, transport xizmatlarida – **7,5 % (464,6 mlrd. so‘m)**, Boshqa xizmatlarda – **6,7% (418,7 mlrd. so‘m)**ni hamda ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi shaxsiy xizmatlarda **0,1 % (4,2 mlrd so‘m)** kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

| | | |
|-----------------|-------------|-------|
| Yangiobod | 2 500,2 | 100,0 |
| Forish | 3 896,8 | 19,5 |
| Paxtakor | 10 726,7 | 53,1 |
| Mirzacho'l | 5 891,3 | 85,7 |
| Zafarobod | 1 332,7 | 100,0 |
| Zarbdor | 11 393,0 | 100,0 |
| Zomin | 5 551,6 | 54,2 |
| Do'stlik | 599,0 | 14,9 |
| Sharof Rashidov | 7 791,7 | 100,0 |
| G'allaorol | 3 429,8 | 47,8 |
| Baxmal | 6 413,5 | 85,6 |
| Arnasoy | 6 210,5 | 100,0 |
| Jizzax sh. | 17114,4 | 38,9 |

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **82976,7** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **55,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Arnasoy, Sharof Rashidov, Zarbdor , Yangiobod – **100,0** % Baxmal tumanida – **85,6** %, Mirzacho'l tumanida – **85,7** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – **14,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **346,8** million AQSH dollarini yoki jami importning **26,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da


2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Do'stlik, Zarbdor tumanlarida – **100,0** %, Sharof Rashidov – 98,7%, Forish tumanida – 95,6%, Zomin,- 88,6% ni tashkil etdi.

| | |
|-----------------|-------|
| Jizzax shahri | 21,8 |
| Arnasoy | 100,0 |
| Baxmal | 36,5 |
| G'allaorol | 0,2 |
| Sharof Rashidov | 98,7 |
| Do'stlik | 100,0 |
| Zomin | 88,6 |
| Zarbdor | 100,0 |
| Zafarobod | 17,3 |
| Mirzacho'l | 62,9 |
| Paxtakor | 14,8 |
| Forish | 95,6 |
| Yangiobod | 100,0 |


Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




Yuk
tashishda



Yuk
aylanmasida



Yo'lovchi
tashishda



Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,0** % ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **96,4** % ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,1** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,8** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,4** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,2** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,1** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **647** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **245** (**37,9 %**)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **371** (**57,3 %**)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **31** (**4,8%**)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,5 %** (**262** ta), xizmatlar sohasida – **25,5 %** (**165** ta), sanoatda – **11,3 %** (**73** ta), qurilishda – **7,4 %** (**48** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **15,3 %** (**99** ta)ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

| | | |
|-----|-----------------|-------|
| 197 | Jizzax shahar | 90,8 |
| 31 | Arnasoy | 100,0 |
| 33 | Baxmal | 94,3 |
| 32 | G‘allaorol | 86,5 |
| 88 | Sharof Rashidov | 94,6 |
| 33 | Do‘stlik | 91,7 |
| 51 | Zomin | 91,1 |
| 17 | Zarbdor | 85,0 |
| 21 | Zafarobod | 87,5 |
| 19 | Mirzacho‘l | 100,0 |
| 41 | Paxtakor | 100,0 |
| 65 | Forish | 94,2 |
| 16 | Yangiobod | 94,1 |


Birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (**197** ta), Sharof Rashidov (**88** ta), Forish (**65** ta), Zomin (**51** ta), G‘allaorol (**32** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiyligi qurilishini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida **18** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **203** taga yetgan yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan **185** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **125** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **416** ta yoki **291** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **54** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **25** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **29** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019 - yilning III choragida **95** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **217** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **122** taga ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning III choragida **301** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragida **339** ta yoki **38** taga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning III choragida **18** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **22** tani tashkil etib, **4** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **34,5 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **31,6 %** ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **2,9%** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **59,0 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning III choragida **64,6 %** yoki **5,6 %** birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **6,5 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **3,9 %** ga yetgan yoki **2,6 %** ga kupaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning **III** choragida **32,0** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **44,2** % ga yetgan yoki 2019- yilning **III** choragida nisbatan **12,2** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning **III** choragida **61,0** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **35,1** % yoki **25,9** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning **III** choragida **7,0** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning **III** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **27,3** % yoki **20,3** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,6** % ni, sanoatda – **13,5** % ni, xizmatlar sohasida – **27,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **42,6** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sohasida – **16,7** % ni, xizmatlar sohasida – **23,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida savdoda – **29,0** % ni , qurilish va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sohasida – **22,6** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning **III** choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,7** % ni, sanoatda – **12,5** % ni. xizmatlar sohasida – **26,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **41,5** % ni, xizmatlar – **24,0** % ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sohasida – **17,5** % ni tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **37,5** % ni ,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va sanoat sohasida – **25,0** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|--|--------------|-----------------------------|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiyligi aylanmasi | 267 | 267 | 40 |
| Band bo‘lganlar soni | 179 | 368 | 28 |

**Sotilgan mahsulot (tovarlar,
ishlar va xizmatlar) uchun
narx**

197 353 23

**Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,
kredit va qarz mablag‘lari**

182 365 26

Raqobat muhiti

223 327 23

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|-------------------------------------|--------------|-----------------------------|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiyligi aylanmasi | 307 | 328 | 12 |
| Band bo‘lganlar soni | 193 | 448 | 6 |

**Sotilgan mahsulot (tovarlar,
ishlar va xizmatlar) uchun
narx**

223 412 12

**Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,
kredit va qarz mablag‘lari**

196 437 14


Raqobat muhiti

258 381 8

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli